

IJTIMOIIY TARMOQLAR-YOSHLAR SUZISH HAVZASIMI?

Xalilov Doston Xayrulla o'g'li

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogiga universiteti

Xorijiy til va adabiyoti nemis tili yo'nalishi talabasi.

dostonxalilov42@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarning qay darajada foydalana olayotgani yoki aksincha aldanib qolyotgani haqida yozilgan. Haqiqatdan ham yoshlar ko'p hollarda foydali tomonlama emas, buning aksi bo'lmish media olamida zo'ravonlik, taxdid va shunga o'xshash ko'plab holatlarga duch kelmoqda. Maqola, media olamida yoshlarning "ciber sport" nomi ostida oshirilayotgan samarali hamda "samaralimi" nomi bilan yechimlarni o'rganadi. Shuningdek maqola ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarning to'g'ri foydalana olishi uchun yechim masalasidir.

Kalit so'zlar: You Tube, Tik Tok, Stanford, kiberbulling, platforma, pewforma

СОЦИАЛЬНЫЕ СЕТИ — БАССЕЙН ДЛЯ МОЛОДЕЖИ?

Халилов Достон

*Студент направления "Немецкий язык и литература иностранных стран"
Джизакского государственного педагогического университета имени Абдуллы
Кадыри.*

dostonxalilov42@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается, насколько молодежь умеет правильно пользоваться социальными сетями или, наоборот, становится жертвой обмана. Действительно, молодежь часто сталкивается не с полезными аспектами интернета, а с такими негативными проявлениями медиaprостранства, как насилие, угрозы и подобные явления. Статья изучает как эффективные решения, представленные под названием «киберспорт», так и «сомнительно эффективные» методы, предлагаемые в медиaprостранстве.

Также статья направлена на поиск решений, позволяющих молодежи правильно использовать социальные сети.

Ключевые слова: YouTube, TikTok, Stanford, кибербуллинг, платформа, Pewforma

ARE SOCIAL MEDIA PLATFORMS A SWIMMING POOL FOR YOUTH

Khalilov Doston

*Student of the German Language and Foreign Literature Department,
Jizzakh State Pedagogical University named after Abdulla Khodiriy.
dostonxalilov42@gmail.com*

Abstract: *This article explores the extent to which young people are able to benefit from social media platforms, or conversely, how they may be falling victim to them. In many cases, youth are exposed not to the positive aspects of media, but to violence, threats, and various harmful influences within the digital world. The article examines both effective solutions promoted under the name of "cybersport" and the so-called "questionable" solutions circulating in the media landscape. Furthermore, the article addresses the issue of finding ways to help youth use social media responsibly and effectively.*

Keywords: *YouTube, TikTok, Stanford, cyberbullying, platform, Pewforma*

Kirish

So'ngi yillarda ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ular nafaqat muloqot vositasi balki, shaxsiy rivojlanish, ta'lim olish va o'zini ifoda etish maydoniga aylangan. Biroq, bu platformalarning haddan tashqari ishlatilishi yoshlarning ruhiy salomatligiga salbiy tasir ko'rsatishi mumkin.

Asosiy qism. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotidagi o'rni.

Pew Rerserch Center tomonidan 2024- yilda o'tgazilgan tadqiqotga ko'ra, AQShdagi 46% deyarli doimiy ravishda onlayn holatda bo'lishadi. You Tube, Tik Tok, Instagram va Snapchat eng ko'p ishlatiladigan platformalar qatoriga kiradi.

“Tanganing ikki tomoni bo'lgani kabi” ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda ham ijobiy hamda salbiy tomonlari mavjud.

Ijobiy tasiri.

1) Ta'lim va o'rganish: Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar turli ta'lim resurslariga osongina kirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Masalan, You Tube platformasida turli mavzularda o'quv videolari mavjud. Bundan tashqari biz yoshlar uchun ham hozirgi kunda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan “Ibrat farzandlari” platformasi orqali chet tilini mukammal va tezda o'rganish uchun shart sharoitlar yaratilib berilmoqda.

2) Muloqot va ijtimoiy aloqalar: Yoshlar ijtimoiy tarmoqlar orqali do'stlari bilan muloqotda bo'lishadi yangi tanishuvlar hamda do'stlar ortdiradilar. Bu esa ularning

ko'nikmalarini rivojlantiradi. Misol uchun men chet tilini o'rganish jaroyonida interdan o'zim uchun ko'plab do'stlar ortdirishni xohlayman. Albatta men uchun chet davlatdan bo'lsa mening ham va menga o'xshagan chet tilini o'rganuvchilar uchun ham shuncha yaxshi natijalar beradi. Misol uchun "Hello talk" platformasi orqali ko'plab do'stlar ortirganman. Bu esa chet tilini o'rganish uchun ancha foyda beradi.

3) Ijodkorlik va o'zini ifoda etish: Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun o'z ijodini namoyish etish, fikrlarini ifoda etish va o'zini tanitish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun talabalar hamda professor o'qituvchilar ham o'z ijodini ijtimoiy tarmoqlarga joylash orqali ko'plab natijalarga erishmoqda. Bunga yana bir yaqqol misol talabalar qobiliyatiga qarab o'z video darslarini ijtimoiy tarmoqlarga joylab bormoqda. Bu ham yoshlarning o'z ijodini oshirish hamda ularga ko'plab natijalar bermoqda.

Ammo buning ham salbiy natijalari mavjud. Salbiy ta'siri.

1) Ruhiy salomatlikga ta'siri:

Stanfordd universiteti tomonidan o'tgazilgan tadqiqotga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish depressiya, xavotir va psixologik bosimning oshishiga olib keladi.

2) Kiberbulling va xavfli kontenti:

Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar kiberbulling, ya'ni onlayn tahqirlash va zo'ravonlikga duch kelishlari mumkin. Bu esa ularning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, hozirgi kunda kuzatishimiz mumkin ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarning aldanib qolyotgani yoki ochiqdan-ochiq yoshlarni turli oqimlarga kirib qolyotgani hech kimga sir emas.

3) Vaqtni behuda sarflash:

Ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqt o'tgazish yoshlarning o'qish va boshqa foydali faoliyatlarga ajratadigan vaqtini kamaytiradi. Ya'ni bunda ko'plab yoshlar aynan vaqtni behuda sarflash hamda bekorchilikdan ko'plab taqiqlangan saytlarga kirish oqibatida o'zi bilmagan holatda jinoiy javobgarlikga tortilayotganligi ham ma'lum. Ammo, donolarning bir gapi bor-"Har dartning ham davosi bor" bo'lgani kabi ijtimoiy tarmoqlarning ham yoshlar uchun foydali tomonlari mavjud. Yoshlarning ongli foydalanish madaniyati.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydali foydalanish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

1) Vaqtni boshqarish:

Ijtimoiy tarmoqlarda o'tgaziladigan vaqtni cheklash va rejalashtirish. Hozirgi kunda telegram platformalarida hattoki vaqtni tejash maqsatida vaqtinchalikga yopilib ma'lum vaqtgacha tanafus qilish programmasi ham mavjud.

1) Xavfsizlik choralarini ko'rish:

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va no'malum shaxslar bilan ehtiyotkorlik bilan muloqot qilish. Ya'ni bunda har bir inson o'z ehtiyotkorligini qilishi kerak.

2) Ijobiy kontentni tanlash:

Foydali va ijobiy kontentni kuzatish, salbiy va zararli kontentdan uzoq turish.

Xulosa:

Xulosa qilib aytish mumkinki:

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi, ammo ularning haddan tashqari ishlatilishi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun, yoshlar ijtimoiy tarmoqlardan ongli va mas'uliyatli tarzda foydalanishlari zarur. Ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyat bu borada yoshlarni qo'llab-quvvatlashlari va yo'l yo'riq ko'rsatishlari muhimdir. Albatta buning ham yechimi mavjud. Oliy o'quv yurtlarida ham "media savotxonligi va axborot madaniyati" fani ham o'tilmoqda. Bu ham biz yoshlarning taqiqlangan hamda yolg'on saytlarga hamda feyk xabarlarga aldanib qolmasligimiz uchun yordam bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Stanford Cyber Policy Center / Pew Research Center (ilmiy resurslar sifatida)
2. Media va texnologiyalar bilan bog'liq ijtimoiy tadqiqotlar, statistik ma'lumotlar beruvchi manbalar.
3. Maqolalar to'plamlari va konferensiya materiallari.
4. Elektron kutubxonalar.